

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 132 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxridtinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliv ta'lif muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynudinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Transformatsiya chelovecheskogo kapitala v usloviyah cifrovizatsii i vnedreniya iskusstvennogo intellekta v bankovskuyu ekosistemu .....	24
<b>S.S. Ismailov</b>	
"Kreativ iqtisodiyot" va "kreativ industriya": mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatichilagini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari .....	53
<b>Sultanov Maximud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitora Sunnat kizi</b>	
Faktory, vliyayushchie na uspeshnoe funktsionirovaniye skandinavskoy modeli razvitiya ekonomiki .....	61
<b>Bohidova Mehri Xasanovna</b>	
Analiz zarubежnogo opyta metodologii otsenki finansovogo potentsiala razvitykh stran .....	69
<b>Buranova Lola Vahobovna</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi .....	78
<b>Babamatov Tolib Xakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarinining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliv ta'lif muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri .....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalilanigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Otsenka vliyaniya nalogovoy sistemy na finansovoe sostoyaniye organizacij .....	116
<b>Umida Yoldasheva</b>	
Teoreticheskoe obosnovanie internet-marketinga v sozialnyx setyax .....	120
<b>Aripkhodjaev Saidamir Fuzuliddinovich</b>	

# MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish ..... 127  
**Ismoilov Sherzod Dilshodovich**



# DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINING TASHKILIY- HUQUQIY MEXANIZMLARI

**S.A.Karabayev**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi  
Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti dekani, dots.



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirish va boshqarish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan. Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy sohadagi loyihalarni amalga oshirishga doir qabul qilingan asosi normativ-huquqiy hujjatlar tizimlashtirilgan. "Navoiyazot" AJ negizida davlat-xususiy sheriklik asosida kimyo-texnologik klasteri uchun issiqlik va quyosh elektr stansiyalarini barpo etish loyihasini amalga oshirish mexanizmi mualiff ishlannmalari asosida tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sheriklik, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash, yashil iqtisodiyot, klaster, xususiy sherik, davlat sherigi, konsessiya, boshqaruv mexanizmi, kimyo-texnologiya.

**Abstract:** This article was described the organizational and legal basis of the implementation and management mechanism of public-private partnership projects. On the basis of public-private partnership, the main normative legal documents adopted in the implementation of projects in the social sphere have been systematized. The mechanism of implementation of the project of construction of heat and solar power plants for the chemical-technological cluster based on public-private partnership on the basis of JSC "Navoiyazot" was analyzed based on the author's developments. Based on the results of the analysis, scientific and theoretical conclusions were formed.

**Key words:** public-private partnership, education sector, healthcare, green economy, cluster, private partner, public partner, concession, management mechanism, chemical technology.

**Аннотация:** В данной статье описаны организационно-правовые основы реализации и механизм управления проектами государственно-частного партнерства. На основе государственно-частного партнерства систематизированы основные нормативно-правовые документы, принимаемые при реализации проектов в социальной сфере. На основе авторских разработок проанализирован механизм реализации проекта строительства тепловых и солнечных электростанций химико-технологического кластера на основе государственно-частного партнерства на базе АО "Навоиазот". По результатам анализа были сформированы научно-теоретические выводы.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, сфера образования, здравоохранение, зеленая экономика, кластер, частный партнер, государственный партнер, концессия, механизм управления, химическая технология.

## KIRISH

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun davlatning iqtisodiy muhim loyihalarini amalga oshirishda va bevosita tartibga solishda davlat roli kamayishi zarur. Shundagina iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda davlat ishtirokining o'rnnini bosuvchi muqobil mexanizmlari paydo bo'la boshlaydi. Bunday mexanizmlaridan biri davlat-xususiy sheriklikdir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, DXSH loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmini tafbiq etish uchun eng istiqbolli yo'nalish transport-logistika sohasi hisoblanadi. Sababi aynan transport sohasi ko'pgina mamlakatlarda eng katta investitsiya salohiyatiga ega sohalardan biridir.

Umuman olganda, DXSHda investitsiya loyihasining boshqaruv organi ushu loyihami amalga oshirishni faqat texnik tomonidan qo'llab-quvvatlash va DXSHning nazorat, ekspertiza va audit funksiyalarini bajarishi kuzatiladi. Bunda davlat va xususiy sektor o'tasidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun DXSH mexanizmining boshqaruv organiga huquqiy jihatdan mustaqil maqom berilishi loyihaning samaradorligini ta'minlaydi. DXSH mexanizmida boshqaruv tizimining asosi hukumatning o'zi tayinlaydigan maxsus yuridik shaxs bo'ladi. Bunga, hukumatning quiy bo'g'lnlari (viloyatlar, viloyatlar va munitsipalitetlarda) boshqaruv organi yoki hududiy (shahar) markazlarni misol qilishimiz mumkin. Ammo bu borada DXSH munosabatlarining shaffofligiga jiddiy salbiy ta'sir etishi kuzatiladi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Richard Hemming DXSH munosabatlari davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham jozibali ekanligi va bunda davlat infratuzilmanni qarz olmasdan moliyalashtira olishi, xususiy sheriklikning boshqaruv imkoniyatlari loyihalarda xarajatlarning tejalishiga olib kelishini ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

DXSH loyihalari orqali xo'jalik yuritiuvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash, DXSH mexanizmi orqali investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ushbu loyihalarni davlatning xizmat ko'rsatish sohalariga ham tatbiq etish imkoniyatlarini o'z ilmiy tadqiqotlarida o'rgangan olimlardan V.G. Varnavskiyning fikricha, "Davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat uchun strategik ahamiyatga yaqin, ammo undan keyingi darajadagi loyihalarga investitsiyalarni jalb etish uchun mexanizm hisoblanadi. Ushbu mexanizmda davlat asosiy ijtimoiy foyda evaziga va kelgusidagi yirik xarajatni oldini olish va uning bir qismini xususiy sektorga uning manfaatlari evaziga yuklashga qaratilgan samarali loyihaviy boshqaruv tizim hisoblanadi"<sup>2</sup>.

U.I. Djumaniyazov o'zining "Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari"ga bag'ishlangan tadqiqot ishida DXSH asosida korporativ boshqaruvni tashkil etish iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlarning yirik korporativ korxonalari bilan erkin raqobat qilishlariga zamin tayyorlashi hamda davlat budgetiga tushumlarni ko'paytirishi va bosimni kamaytishi, korporativ tuzilmalarning ijtimoiy faolligini oshirishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miqyosda texnika-texnologiyalarni, ishchi kuchi va investitsiya mablag'larini jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishini ta'kidlaydi<sup>3</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada statistik ma'lumotlarni qiylash, solishtirma tahlil, guruqlash va boshqa uslublardan foydalanildi. Shuningdek, davlat davlat-xususiy loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslari yuzasidan amaldagi qonunchilik normalari bo'yicha ayrim masalalar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda davlat davlat-xususiy loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslari, aytish kekakki, tizimli asoslarga ega. Bu borada davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarini amalga oshirish, ushbu turdagiloyihalarini amalga oshirish va boshqarishni davlat tomonidan rag'batlanish, xususiy sohaga oid munosabatlarni huquqiy tarafdan tartibga solish, huquqiy asoslar orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish kabi chora-tadbirlar 2018-yildan keyin jadal sur'atlar bilan rivojlanib kelayotganligini davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish natijalari orqali guvohi bo'ldik.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) ochiq joylashtirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslari sonining tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

2018–2023-yillar davomida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan 40 dan ortiq huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan: 2 ta O'zbekiston Respublikasi qonuni, 16 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, 23 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan.

**1-jadval. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va boshqarish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslari<sup>4</sup>**

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Qabul qilingan jami qonun hujjatlari soni	8	8	3	9	8	5
шундан:							
1.1.	O'zbekiston Respublikasi qonunlari	-	1	-	1	-	-
1.2.	Prezident Farmon va qarorlari	3	1	2	3	2	5
1.3.	Vazirlar Mahkamasining qarorlari	5	6	1	5	6	-

1 Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006.

2 Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: teoriya i praktika [Tekst] / V. G. Varnavskiy i dr.; Gos. un-t – Viysshaya shkola ekonomiki. – M.: Izd. dom Gos. un-ta – Viysshey shkoly ekonomiki, 2010. — 287 s.


3 Иктисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 3, майиёнъ, 2017 йил № 3, [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

4 Муаллиф ишланмаси.



Izoh: Mazkur huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) ochiq joylashtirilgan normativ-huquqiy asoslar orqali tuzilgan.

- Davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish va boshqarishga oid bo'lgan 2018 va 2019 yillarda 8 tadan, 2020-yilda 3 ta, 2021-yilda 9 ta, 2022-yilda 8 ta, 2023-yilning hozirgi davriga qadar 5 ta huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjatlar quyidagi yo'nalishdagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va boshqarishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir:



**1-rasm.** 2018-2023 yillarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha yo'nalishlar kesimida qabul qilingan huquqiy asoslar<sup>5</sup>.

2018-2023-yillarda davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha yo'nalishlar kesimida qabul qilingan huquqiy asoslar quyidagini ko'rsatmoqda:

1) o'tgan davr mobaynida qabul qilingan huquqiy asoslarga ko'ra davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida amalga oshirilgan va amalga oshirilishi belgilangan loyihalarning asosiy qismi ijtimoiy rivojlantish sohalariiga, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lif tizimi (maktab va maktabgacha, olyi ta'lif), madaniyat, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalarga qaratilganligini ko'ramiz. Ya'ni ushbu yo'nalishdagi sohalarda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish va boshqarish mexanizmiga oid huquqiy hujjatlarning salkam 50 foizi ushbu sohalarga taalluqli ekanligini ko'rishimiz mumkin:

**2-jadval.** Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy sohadagi loyihalarni amalga oshirishga doir qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar<sup>6</sup>

No	Huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ (subyekt)	Qabul qilingan raqami, sanasi va kuchga kirish sanasi
1	Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-3892, qabul qilingan sana 01.08.2018, kuchga kirish sanasi 02.08.2018
2	Davlat-xususiy sherikchilik asosida zamonaviy maktabgacha ta'lif muassasasini tashkil etish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№681, qabul qilingan sana 24.08.2018, kuchga kirish sanasi 25.08.2018
3	Davlat-xususiy sheriklik asosida markazlashtirilgan klinika-diagnostika laboratoriysi tashkil etish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№674, qabul qilingan sana 17.08.2018, kuchga kirish sanasi 20.08.2018
4	Maktabgacha ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№475, qabul qilingan sana 25.06.2018, kuchga kirish sanasi 27.06.2018

5 Муаллиф ишланмаси

6 Мазкур хукуқий асослар Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базасига ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) очик жойлаштирилган норматив-хукуқий асослар орқали тузилган.



5	Toshkent shahrida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya ishtirokidagi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№417, qabul qilingan sana 18.05.2019, kuchga kirish sanasi 21.05.2019
6	Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-4290, qabul qilingan sana 16.04.2019, kuchga kirish sanasi 17.04.2019
7	Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№184, qabul qilingan sana 01.03.2019, kuchga kirish sanasi 02.03.2019
8	Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-4581, qabul qilingan sana 30.01.2020, kuchga kirish sanasi 31.01.2020
9	Saudiya taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№416, qabul qilingan sana 03.07.2021, kuchga kirish sanasi 04.07.2021
10	Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki obyektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№30, qabul qilingan sana 20.01.2021, kuchga kirish sanasi 21.01.2021
11	Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik munosabatlарини zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№426, qabul qilingan sana 02.08.2022, kuchga kirish sanasi 03.08.2022
12	Talabalar turarjoylarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№239, qabul qilingan sana 06.05.2022, kuchga kirish sanasi 07.05.2022
13	Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida umumiy o'rta ta'lim mакtabларини tashkil etish to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-163, qabul qilingan sana 25.05.2023, kuchga kirish sanasi 25.05.2023
14	Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-118, qabul qilingan sana 10.04.2023, kuchga kirish sanasi 11.04.2023

2) soha faoliyatiga doir qabul qilingan huquqiy asoslar orasida davlat-xususiy sheriklik faoliyatidagi munosabatlarni tartibga solish, sohasini ilg'or texnologiyalar va zamonaviy vositalar asosida rivojlantirish maqsadida tasdiqlangan nomartiv hujjatlarning 20% ma'muriy boshqaruvi, davlat xizmatlari sohasiga oid:

**3-jadval. Davlat-xususiy sheriklikda ma'muriy boshqaruvi va davlat xizmatlari sohasiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar<sup>7</sup>.**

№	Huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ (subyekt)	Qabul qilingan raqami, sanasi va kuchga kirish sanasi
1	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№1009, qabul qilingan sana 13.12.2018, kuchga kirish sanasi 14.12.2018
2	Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-3980, qabul qilingan sana 20.10.2018, kuchga kirish sanasi 22.10.2018
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tuman (shahar) lardagi Xalq qabulxonalari huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari binolarining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurilishini tashkil etish to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-3701, qabul qilingan sana 08.05.2018, kuchga kirish sanasi 14.05.2018
4	Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida	Qonun	№-537, qabul qilingan sana 10.05.2019, kuchga kirish sanasi 12.06.2019

7 Мазкур хукуқий асослар Ўзбекистон Республикаси қонунчиллик маълумотлари миллий базасига ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) очик жойлаштирилган норматив-хукуқий асослар орқали тузилган.



5	Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalg etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-4913, qabul qilingan sana 07.12.2020, kuchga kirish sanasi 07.12.2020
6	Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№259, qabul qilingan sana 26.04.2020, kuchga kirish sanasi 27.04.2020
7	O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-307, qabul qilingan sana 14.09.2023, kuchga kirish sanasi 18.09.2023

3) Davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish va boshqarish mexanizmining huquqiy asoslari tadqiq etish jarayonida qabul qilingan huquqiy hujjatlarning 13% uy-joy va kommunal sohalariga doir ekanligining guvohi bo'ldik:

#### 4-jadval. Davlat-xususiy sheriklikda amalga oshiriladigan uy-joy va kommunal sohasiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar<sup>8</sup>

No	Huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ (subyekt)	Qabul qilingan raqami, sanasi va kuchga kirish sanasi
1	Aholi punktlari qismlarining batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqishni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№169, Qabul qilingan sana 26.02.2019, Kuchga kirish sanasi 26.02.2019
2	Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№594, Qabul qilingan sana 22.09.2021, Kuchga kirish sanasi 22.09.2021
3	Toshkent shahri issiqlik ta'minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik asosida yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№241, Qabul qilingan sana 07.05.2022, Kuchga kirish sanasi 07.05.2022
4	Davlat-xususiy sheriklik asosida Toshkent shahar issiqlik markazlarini kogeneratsion texnologiyalarini joriy etish orqali modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№214, Qabul qilingan sana 26.04.2022, Kuchga kirish sanasi 26.04.2022
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida"gi PQ-118-soni qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida	Prezident qarori	№PQ-185, Qabul qilingan sana 12.06.2023, Kuchga kirish sanasi 13.06.2023

Mazkur sohaga doir bo'lgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va boshqarishga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining asosiy mazmuni isitish tizimlarini yanada rivojlantirishga xususiy sektor vakillarini jalg qilishni rag'batlantirish, shu orqali mazkur yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik asosida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdir.

4) Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish maqsadida o'tgan davr mobaynida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligining guvohi bo'lgan.

#### 5-jadval. Davlat-xususiy sheriklikda qishloq xo'jaligini rivojlantirish sohasiga oid qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar<sup>9</sup>

No	Huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ (subyekt)	Qabul qilingan raqami, sanasi va kuchga kirish sanasi
1	Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№105, Qabul qilingan sana 07.02.2019, Kuchga kirish sanasi 08.02.2019
2	Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish borasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№199, Qabul qilingan sana 10.04.2021, Kuchga kirish sanasi 12.04.2021

Mazkur sohaga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar jami 2018–2023-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish va boshqarish mexanizmiga doir bo'lgan huquqiy asoslarning 12%ni tashkil etganligi bilan ahamiyatlidir.

8 Мазкур хукуқий асослар Ўзбекистон Республикаси қонунчиллик маълумотлари миллий базасига ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) очик жойлаштирилган норматив-хукуқий асослар орқали тузилган.


9 Мазкур хукуқий асослар Ўзбекистон Республикаси қонунчиллик маълумотлари миллий базасига ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) очик жойлаштирилган норматив-хукуқий асослар орқали тузилган.



5) Yashil iqtisodiyot va energetika sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar orasida quyidagilarni alohida ko'rsatishimiz mumkin:

**6-jadval.** Davlat-xususiy sheriklikda yashil iqtisodiyot va energetika sohasiga oid qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar<sup>10</sup>.

No	Huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ (subyekt)	Qabul qilingan raqami, sanasi va kuchga kirish sanasi
1	"Navoiyazot" AJ negizida davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan kimyo-texnologik klasteri uchun issiqlik va quyosh elektr stansiyalarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№240, qabul qilingan sana 07.05.2022, kuchga kirish sanasi 07.05.2022



**2-rasm.** "Navoiyazot" AJ negizida davlat-xususiy sheriklik asosida kimyo-texnologik klasteri uchun issiqlik va quyosh elektr stansiyalarini barpo etish loyihasini amalga oshirish mexanizmi<sup>11</sup>.

Aytish kerakki, dastblabki bosqichga ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat-xususiy sherik asosidagi loyihalarni amalga oshirishni jadallagstirish maqsadida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, 2022-yilda "Navoiyazot" AJ negizida davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan kimyo-texnologik klasteri uchun issiqlik va quyosh elektr stansiyalarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining Qarori yashil iqtisodiyot, bunda energetika sohasida ham davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini paydo qildi. Mazkur huquqiy hujjatlarga ko'ra, "Navoiyazot" AJ negizida tashkil topgan davlat-xususiy sherikka asoslangan kimyo-texnologik klasteri uchun issiqlik va quyosh elektr stansiyalarini barpo etish loyihasini "O'zkimyo-sanoat" AJ, "Electricite de France S.A." (Fransiya), "Stone city InSolar B.V" (Niderlandiya) va "Siemens energy global GmbH&Co.KG" (Germaniya) kompaniyalari tomonidan amalga oshirilishi bayon etilgan. Mazkur huquqiy asosda loyihani amalga oshirish mexanizmlari bir necha bosqchilarga ajratilgan (2-rasm).

6) Shuningdek, transport sohasi bo'yicha davlat-xususiy sheriklikka asoslangan loyihalarni amalga oshirishga doir bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar 2018–2023-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish va boshqarish munosabatlарini tartibga solish maqsadida qabul qilingan jami normativ-huquqiy asoslarning 10%ni tashkil etadi.

10 Мазкур хукуқий асослар Ўзбекистон Республикаси қонунчиллик маълумотлари миллий базасига ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) очиқ жойлаштирилган норматив-хукуқий асослар орқали тузилган.

11 Муаллиф ишланмаси. Манба: <https://lex.uz/docs/5996848>



## 7- jadval. Davlat-xususiy sheriklikda transport sohasiga oid qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar<sup>12</sup>

No	Huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ (subyekt)	Qabul qilingan raqami, sanasi va kuchga kirish sanasi
1	Respublika aeroportlarini boshqarish sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-5042, Qabul qilingan sana 29.03.2021, Kuchga kirish sanasi 29.03.2021
2	Avtomobil transporti sohasida davlat ishtirokidagi korxonalarga xususiy sektorni jalb qilish to'g'risida	Vazirlar Mahkamasining qarori	№2, Qabul qilingan sana 02.01.2022, Kuchga kirish sanasi 03.01.2022
3	"Samarqand" xalqaro aeroportini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va boshqarish bo'yicha loyihani amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida	Prezident qarori	№PQ-238, Qabul qilingan sana 07.05.2022, Kuchga kirish sanasi 07.05.2022

Mazkur soha bo'yicha qabul qilingan huquqiy asoslarda avtomobil transportini rivojlantirishga davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish, havo transporti tizimlarini ilg'or zamonaviy texonologiyalar hisobiga rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu huquqiy asoslar jumlasiga yuqoridaqilarni keltirish maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida ko'rib o'tilganlar asosida aytish mumkinki, davlat-xususiy sherik asosida amalga oshiriladigan loyihalarning asosiy bosh huquqiy asosi – O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonun hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni bilan davlat-xususiy sheriklikka asoslangan loyihalarning ikkinchi muhim tomoni – "xususiy sherik"ning qator huquqlari kafolatlanganligini ko'ramiz. Bu mazkur loyihalarga investitsiyalarni jalb etishda muhim jihatdir. Shu ma'noda yuqorida nomi keltirilgan qonun bilan xususiy sherikning huquqlari quyidagicha kafolatlangan.

"Agar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tuzilgan sanada amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgartirilishi to'g'ridan to'g'ri xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasidagi xarajatlari oshishiga yoki uning daromadlari kamayishiga olib kelsa, xususiy sherik, amalga oshirilayotgan loyihadan kelib chiqqan holda, davlat-xususiy sheriklik obyektidan erkin foydalanish uchun to'lov va (yoki) foydalan-ganlik uchun to'lov kompensatsiyalovchi tarzda oshirilishini, shuningdek, davlat sherigidan bir martalik kompen-satsiya to'lovini va (yoki) davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga tegishli o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishini, agar bu davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan bo'lsa, talab qilishga haqlidir. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan kafolatlarni qo'llashga doir tartib, shartlar, cheklolvar va istishnolar davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda belgilanadi. Ushbu modda birinchi qismining qoidalari davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tuzilganidan keyin soliqlar va yig'imlar o'zgartirilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda qo'llanilmaydi, bundan muayyan bir davlat-xususiy sheriklik loyihasiga (loyihalariga) nisbatan kamsituvchi o'zgarishlar mustasno".

Xulosa qilib aytganda, davlat-xususiy sheriklikka asoslangan loyihalarni amalga oshirish va ularni samarali boshqaruvida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslar muhim o'rninga ega. O'zbekistonda mazkur faoliyatni rivojlanishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ayni qabul qilingan huquqiy asoslarda o'z aksini topgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Мохир Ахмедов, Равшан Азимов, Шахин Хусейнов, Бернд Тасел "Системы здравоохранения время перемен". Узбекистан обзор системы здравоохранения. Европейская обсерватория по системам и политике здравоохранения. 16 жилд, №5, 2014 ийл.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.04.2019 йилдаги "Соғлиқни сақлаш соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4290-сон қарори. lex.uz>docs/4291567
- <https://kun.uz>
- <https://stat.uz>
- World Health Organization: National Health Account Statistics <https://www.who.int/data/gho/publications/world-health-statistics>.

12 Мазкур хукуқий асослар Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базасига ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) очиқ жойлаштирилган норматив-хукуқий асослар орқали тузилган.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

